

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

TUYCHIYEV TIMUR ORTIKOVICH

**PAXTANI TOZALASH VA REGENERATSIYALASHNING
TAKOMILLASHTIRILGAN TEXNOLOGIYASINI ILMIY ASOSLARI**

**05.06.02 – “To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish”**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)
по техническом наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Science (DSc)
on technical sciences**

Tuychiyev Timur Ortikovich

Пахтани тозалаш ва regeneratsiyalashning takomillashtirilgan
texnologiyasini ilmiy asoslari..... 3

Туйчиев Тимур Ортикович

Научные основы усовершенствованной технологии очистки и
регенерации хлопка..... 33

Tuychiev Timur Ortikovich

Scientific foundations of an improved technology for cotton cleaning
and regeneration..... 65

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 69

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

TUYCHIEV TIMUR ORTIKOVICH

**PAXTANI TOZALASH VA REGENERATSIYALASHNING
TAKOMILLASHTIRILGAN TEXNOLOGIYASINI ILMIY ASOSLARI**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2026.1 DSc/T910 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ttesi.uz) va “Zionet” Axborot-ta’lim portalida (www.Zionet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ro‘zmetov Raxmatjon Ibodullayevich
texnika fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Jumaniyazov Qadam Jumaniyazovich
texnika fanlari doktori, professor

Muhammadiyev Davlat Mustafoyevich
texnika fanlari doktori, professor

Sarimsakov Olimjon Sharipjanovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:


Jizzax politexnika instituti


Dissertatsiya himoyasi Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.T.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 16-iyun soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon-5, tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, faks: 253-36-17; e-mail: pochta@ttyesi.uz, Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti ma’muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).


Dissertatsiyasi ishi bilan Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№301 - raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon-5, tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 2-iyun kuni tarqatildi.
(2026-yil 2-iyun №301-raqamli reyestr bayonnomasi).




X.H. Kamilova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor


A.Z. Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor


Sh.Sh. Xakimov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon to‘qimachilik sanoatida paxta tolasi umumiy tola miqdorining 55-60 foizini tashkil etadi, bu esa paxtaning ushbu sohadagi ahamiyatini yanada oshirib, uning asosiy xomashyolardan biri ekanligini ko‘rsatadi. Dunyo statistikasi va Paxta bo‘yicha Xalqaro konsultativ qo‘mitaning ma‘lumotlariga ko‘ra, «2025–2026-yil paxta mavsumida katta hajmda tolani eksport qilayotgan davlatlar to‘rttaligini AQSH, Hindiston, Avstraliya va Braziliya tashkil etsa, import qiluvchi davlatlar qatorida Vetnam, Bangladesh, Pokiston, Xitoy va Turkiya yetakchi o‘rinlarni egallaydi». Paxta-to‘qimachilik klasterlarini tizimli ravishda rivojlantirish, sanoat korxonalarida ilg‘or texnika va texnologiyalarni keng joriy etish, mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali va oqilona foydalanish darajasini oshirish, shuningdek, jahon paxta bozorida raqobatbardosh bo‘lgan, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish paxta sanoatining barqaror taraqqiyotini ta‘minlovchi asosiy omillardir. Bu borada, jumladan, jahon miqyosida faoliyat yuritayotgan paxta-to‘qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida xom ashyoni uzluksiz va sifatli uzatishni ta‘minlovchi zamonaviy ta‘minlash qurilmalarini ishlab chiqish, paxtani mayda hamda yirik iflosliklardan yuqori darajada ajratib beruvchi tozalash uskunalari modernizatsiya qilish, qayta ishlash jarayonida yo‘qotishlarni kamaytirishga xizmat qiluvchi regeneratsiya texnologiyalarini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Xalqaro tajribada paxtani dastlabki qayta ishlash texnikasi va texnologiyalarini yanada takomillashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli ilmiy-tadqiqot ishlari izchil ravishda olib borilmoqda. Ushbu sohada, jumladan paxtani tozalashning samarali texnologiyasini ishlab chiqish, paxtani bir maromda uzluksiz uzatish, ta‘minlagichlarning resurstejamkor samarali qurilmalarini yaratish, paxtani tozalash jarayoniga tayyorlash, mayda iflosliklardan tozalashda paxta tolalarini eshilishini kamaytirish, iflosliklar tarkibidagi paxta bo‘lakchalarini regeneratsiyalash texnologiyasini ishlab chiqish, ishlash rejimlari va ko‘rsatkichlarini optimallashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda paxta-to‘qimachilik tarmog‘ini rivojlantirish, paxta tozalash korxonalarini modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlash, ishlab chiqarish va paxta xomashyosini qayta ishlash samaradorligini, shu bilan birga, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan, «...Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish maqsad qilinib, bunda to‘qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko‘paytirish...» bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan¹. Ushbu vazifani bajarishda, jumladan tozalash mashinalarini paxta bilan uzluksiz va titilgan holda ta‘minlash, paxtani tozalash jarayoniga tayyorlash, paxtaning eshilganlik darajasini

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

kamaytirish, iflosliklar tarkibidan paxta bo‘lakchalarini regeneratsiyalashning samarali texnologiyasini yaratish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2021-yil 16-noyabrdagi PF–14-son «Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi², 2023-yil 10-yanvardagi PF–2-son “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi³ Farmonlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-dekabrdagi 733–son «Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi⁴ Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.

Paxta xomashyosi tarkibidagi iflos aralashmalarni tozalash texnika va texnologiyasini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta‘lim muassasalari, jumladan, USDA Agricultural Research Service, USDA Ginning Cotton Research Unit, Samuel Jakson Incorporated, Lummus, Texas Tech University, (AQSH), Cotton Research Institute of Nanjing Agricultural University Lebed, Shandong Swan Cotton Industrial Machinery Stock Co., Ltd. (Xitoy), Central Institute for Research on Cotton Technology, Bajaj Steel Industries Ltd (Hindiston), Balkan Cotton Ginning Machinery Ltd.(Turkiya), Brazilian Agricultural Research Corporation (Braziliya), Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti, Namangan davlat texnika universiteti, Tolali ekinlar ilmiy tadqiqot institutida (O‘zbekiston) keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Paxtaning tabiiy sifat ko‘rsatkichlarini saqlab qolish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan texnika va texnologiyalarni takomillashtirish bo‘yicha jahonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida qator, jumladan quyidagi natijalar olingan: paxtani tozalashda uni boshlang‘ich iflosligini inobatga olgan holda kerakli tozalash bosqichlarini avtomatik rostlash tizimi yaratilgan (USDA Ginning Cotton Research Unit, AQSH); paxtani mayda va yirik iflosliklardan tozalash va uni jadallashtirish uchun texnologiyaga uzatishda yagona ta‘minlash bunkeri o‘rnatilgan va tozalagichlarda paxta dastlab qoziqchali barabanlarning yuqori qismida titilib undan

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-noyabrdagi “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–16-sonli Farmoni.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-yanvardagi “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–2-sonli Farmoni.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 4 dekabrdagi «Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 733–sonli Qarori.

keyin tozalash zonasiga uzatish texnologiyalari ishlab chiqilgan (Texas Tech University, AQSH, Bajaj Steel Industries Limited, Hindiston); paxtani mayda va yirik iflosliklardan tozalash bo'yicha "Paxtani dastlabki ishlashning muvofiqlashtirilgan texnologiyasi" ishlab chiqilgan (Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, «Paxtasanoat ilmiy markazi» aksiyadorlik jamiyati, O'zbekiston).

Jahonda paxtani tozalash va regeneratsiyalash uskunalari va texnologiyalarini yaratish bo'yicha qator, jumladan quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: paxtani tozalashga ta'minlovchi qurilmalarida vaqt bo'yicha uzilishlarni bartaraf etish, paxtani mayda iflosliklardan tozalashda paxta tolalarini eshilishini kamaytirish va iflosliklarga qo'shib ketgan paxta bo'lakchalarini regeneratsiyalash samaradorligini oshirish imkoniyatini beruvchi samarali tozalash texnologiyasini ishlab chiqish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Paxta tozalash uskunalari va ta'minlovchi qurilmalarini hamda regeneratrlarni takomillashtirish bo'yicha bir qator chet el olimlari W.S.Anthony, Wu Yanqin, X. Zhang, J.D. Wanjura, M.N. Gillum, C.B. Armijo va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Paxtani iflos aralashmalardan tozalash texnika va texnologiyasi, asosiy ishchi qismlarning ko'rsatkichlari va ishlash rejimlari hamda paxta bilan ta'minlash jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha bir qator olimlar, shu jumladan A.YE. Lugachev, B.G. Kadirov, I.K. Xafizov, G.A. Kurbanova, A. Parpiyev, A.Djurayev, Y.S.Sosnovskiy, A.A.Safayev, P.N.Borodin, I.D.Madumarov, Sh.Sh.Xakimov va boshqalar bu soha rivojiga munosib hissa qo'shdilar.

Lekin, chet el va mahalliy paxta tozalash korxonalarida foydalanilayotgan paxta tarkibidagi iflos aralashmalardan tozalash, regeneratsiyalash uskunalari va ta'minlovchi qurilmalarining tahlili ularning ishchi qismlari samaradorliklarini oshirish masalalari o'zining samarali yechimini topmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №ITD-3-136 "Resurstejamkor boshqariladigan tolali materiallarni tozalash texnologiyasi va qurilmasini yaratish" (2012-2016 yy.), № OT-F4-13 "Chigitli paxtani tozalash texnologiyasi samaradorligini oshirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish" (2017-2020 yy.) mavzulari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: paxtani bir maromda titilgan holda tozalagichlarga ta'minlash, paxta bo'lakchalarining eshilishini va mahsulot yo'qolishini kamaytirgan holda tozalagichlar va regeneratrlarning samaradorliklarini oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: ishning maqsadidan kelib chiqqan holda, quyidagi vazifalar belgilab olindi:

-shaxta-to'plagichda paxta zichligini oshirmasdan tozalash jarayoniga uzatish imkoniyatini beruvchi takomillashtirilgan shaxta to'plagich parametrlarini aniqlash;

-paxtani tozalash texnologiyasiga bir maromda uzluksiz ta'minlash imkoniyatini beruvchi ta'minlovchi valiklarning parametrlarini aniqlash va paxtani tozalashga tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish;

-shnekli tozalagichda paxta bo‘lakchalarini eshinishini kamaytiruvchi va tozalash samaradorligini oshiruvchi shnek qoziqchalarining ratsional qiymatlarini aniqlash;

-tozalash jarayonida iflosliklarga qo‘shilib ajralgan paxta bo‘lakchalarini regeneratsiyalashda mahsulot yo‘qolishini kamaytirish;

- takomillashtirilgan ta‘minlagich, qoziqchali shnekli tozalagich va regeneratrlarni ishlab chiqarish sharoitida tajriba-sinovlarini o‘tkazish hamda iqtisodiy samaradorliklarini hisoblash.

Tadqiqotning obyekti tozalagichning paxta bilan ta‘minlovchi qurilmasi hamda paxtani iflos aralashmalardan tozalash va regeneratsiyalash texnologik jarayonlari.

Tadqiqotning predmeti turli seleksion va sanoat navidagi paxta xomashyosi hamda paxtani qoziqchali barabanlarga uzatib beruvchi ta‘minlagichning konstruksiyasi va geometrik o‘lchamlari, shnekli tozalagich qoziqchalarining shakli va qiyalik burchagi, regeneratrlarning konstruksiyasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarda nazariy va amaliy mexanika, matematik statistika usullaridan, kompyuter texnologiyasining Maple, AutoCAD zamonaviy dasturlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

shaxta to‘plagichda paxta oqimi bosimining zichlik va massasiga bog‘liqlik ifodasi qurilib, undagi paxta zichligini oshirmasdan tozalash jarayoniga uzatish imkoniyatini beruvchi takomillashtirilgan shaxta to‘plagich devorining qiyalik burchagi va uning enini optimal qiymatlari aniqlangan;

paxtani tozalash texnologiyasiga bir maromda uzluksiz ta‘minlash imkoniyatini beruvchi ta‘minlovchi valiklar konstruksiyasining parametrlari, paxtani tozalash zonasiga tushishidan oldin qoziqchali-plankali barabanlarning yuqori qismida alohida bo‘lakchalarga ajratib, paxtani tozalashga tayyorlash texnologiyasi ishlab chiqilgan;

shnekli tozalagichda paxta oqimining harakatini ifodalovchi differensial tenglamasi qurilib, shnek qoziqchalarining qiyalik burchagini qiymati va ularni shnek perosining ikki tomoniga o‘rnatilishi iflosliklar ajralishini jadallashtirishi aniqlangan;

mayda iflosliklardan tozalash texnologiyasining shnekli tozalagichida paxta bo‘lakchalarini eshinishini va uskunaning tozalash samaradorligini shnek qoziqchalarining qiyalik burchagiga bog‘liqlik grafiklari qurilib, eshinganlik darajasini kamaytiruvchi shnek qoziqchalarining ratsional qiymatlari aniqlangan;

cho‘tkali barabandan otib berilgan ifloslik aralashgan paxta bo‘lakchalarini yo‘naltirgich ta‘siri natijasidagi harakatlanishini yo‘naltirgichning oraliq masofasi va og‘ish burchaklariga bog‘liqlik ifodasi qurilib, yo‘naltirgichlar soni va qiyalik burchaklari aniqlangan;

kichik kvadratlar usul yordamida qurilgan regressiya modellari asosida yirik iflosliklardan tozalash texnologiyasida iflosliklarga qo‘shilib ajralgan paxta bo‘lakchalarini regeneratsiyalashda mahsulot yo‘qolishini kamaytiruvchi regeneratrlarning ratsional qiymatlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tozalash uskunalarga paxta xomashyosini tabiiy sifat ko‘rsatkichlarini saqlab qolgan holda bir me‘yorda uzluksiz ta‘minlab beruvchi ta‘minlagich, paxta

bo'lakchalarini eshilganligini kamaytiruvchi va tozalash samaradorligi yuqori shnekli tozalagich hamda mahsulot yo'qolishini kamaytiruvchi regenerator ishlab chiqilgan va ishlab chiqarishga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi paxtaning tolali massasi tarkibidan iflos aralashmalarni ajralish jarayonining nazariy tadqiqotlari natijasining amaliy sinovi va ularni ishlab chiqarishga joriy etilgandan so'ng olingan ko'rsatkichlarning muvofiqligini taqqoslashga asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shaxta-to'plagichda paxtani zichligini oshirmasdan tozalash jarayoniga uzatish imkoniyatini beruvchi konstruksiyasini tanlash maqsadida shaxta to'plagichda paxta oqimining bosimini zichligi va massasiga bog'liqlik ifodasi qurilganligi, iflosliklar ajralishini oshiruvchi shnek qoziqchalarining og'ish burchagini aniqlash uchun shnekli tozalagichda paxta oqimining harakatini ifodalovchi differensial tenglamasi qurilganligi, kichik kvadratlar usul yordamida qurilgan regressiya modellari asosida regeneratorning yo'naltirgichlar soni va qiyalik burchaklari aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, paxta xom ashyosining tabiiy sifat ko'rsatkichlarini saqlab qolgan holda, tozalash uskunalariga talab etilgan paxta xomashyosini titib, bir me'yorda uzluksiz ta'minlovchi qurilma, paxta bo'lakchalarining eshilishini kamaytiruvchi shnekli tozalagich, yirik iflosliklardan tozalash texnologiyasida iflosliklarga qo'shib ajralgan paxta bo'lakchalarini regeneratsiyalashda mahsulot yo'qolishini kamaytiruvchi regenerator ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Paxta tozalash uskunalarining tozalash samaradorligini oshirish imkoniyatini beruvchi ta'minlagich va paxtani tozalash jarayoniga tayyorlash texnologiyasi, tolani eshilishini kamaytiruvchi tozalagich va regeneratsiyalash uskunasi bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy natijalar asosida:

shaxta-to'plagichning shakli to'g'ri to'rtburchak va eni 240 mm, qoziqchali ta'minlovchi valiklar o'rnatilgan paxta tozalash mashinasi O'zbekiston Respublikasi "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining tasarrufiga kiruvchi TST AGRO klaster tarkibidagi Mustaqillik paxta tozalash korxonasida tatbiq etilgan. ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2026-yil 28-fevraldagi 01/06-600 sonli ma'lumotnomasi). Natijada paxta tozalash uskunasining tozalash samaradorligini $5,5 \div 6,2\%$ ga oshirish hisobiga tolaning ifloslik va nuqsonlar miqdorini $0,4 \div 0,8\%$ gacha kamaytirishga erishilgan;

paxta bo'lakchalarini eshilishini kamaytirish hisobiga mayda iflosliklardan tozalash samaradorligi yuqori bo'lgan shnekli tozalash uskunasining takomillashtirilgan konstruksiyasi Farg'ona viloyati "Kosta line holding" MCHJ ga qarashli "Rishton paxta tozalash" korxonasiga joriy qilingan. ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2026-yil 28-fevraldagi 01/06-600 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, uskunaning tozalash samaradorligi $8,3\%$ ga oshirishga va paxtani eshilganligini $5,1\%$ ga kamaytirishga erishildi;

tavsiya etilayotgan takomillashtirilgan regeneratorida iflosliklar bilan qo'shilgan paxta bo'lakchalarini ko'p marotaba tozalash imkonini beruvchi uskuna TST AGRO klaster qoshidagi Mustaqillik paxta tozalash korxonasida joriy etilgan

(“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2026-yil 28-fevraldagi 01/06-600 sonli ma’lumotnomasi). Natijada uskunaning regeneratsiyalash samaradorligini 5,5 %ga, tozalash samaradorligini 13 %ga oshishiga va mahsulot yo‘qolishini 5 %ga kamayishi hisobiga tolaning sinfini ko‘tarilishiga hamda mahsulot hajmini oshishiga erishildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 18ta xalqaro (6 tasi Scopus) va 11ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 48ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, 2 ta monografiya nashr etilgan va 2 ta foydali model uchun patent olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 197 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilish, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Adabiyotlar tahlili**” deb nomlangan birinchi bobida paxtani iflos aralashmalardan tozalashning mahalliy va xorijiy texnologiyalarining tahlili, paxtani mahalliy mayda iflosliklardan tozalash uskunalari va ta‘minlovchi qurilmalarining hamda ularni takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili, paxtani mahalliy yirik iflosliklardan tozalash va regeneratsiyalash uskunalari hamda ularni takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili, paxtani tozalashning xorijiy texnikalari hamda ularni takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlillari keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Paxta ta‘minlagichini takomillashtirish bo‘yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar**” deb nomlangan ikkinchi bobida takomillashtirilgan paxta ta‘minlagichning konstruksiyasini tanlash, takomillashtirilgan ta‘minlagich o‘rnatilgan 1XK mayda iflosliklardan tozalashdagi nazariy tahlili, paxtani iflosliklardan samarali tozalashdagi ta‘minlovchi valiklarning nazariy tahlili, qoziqchali baraban ta‘sirida paxta bo‘lakchalaridan mayda iflosliklarni ajratishdagi nazariy tahlili, shaxta-to‘plagichdagi paxta massasini uning fizik mexanik xususiyatlariga ta‘siri, ta‘minlovchi valiklarning paxtani qamrab olish jarayonini tadqiqoti, shaxta-to‘plagichda paxtani tiqilib qolish holatini tadqiq etish hamda takomillashtirilgan ta‘minlagich o‘rnatilgan tozalagichning regression modelini qurish ishlari olib borilgan.

Paxta oqimini shaxta to‘plagichning pastki qatlamdagi zichligi yuqori qismidagi zichligiga nisbatan ko‘pligi sababli, paxtani ta‘minlovchi valiklar yordamida qoziqchali barabanlarga uzatishda uzluksiz ta‘minlash imkoni mavjud emasligi

natijasida iflosliklarni tozalash samaradorligi yaxshi natija bermaydi. Shuning uchun tavsiya qilinayotgan shaxta to'plagichning barcha qatlamlarida paxtani zichligi bir xilda bo'lishini ta'minlab beradi, bu esa o'z navbatida qoziqchali valiklar yordamida titish jarayonini uzluksiz ta'minlash imkonini beradi va iflosliklardan tozalash samaradorligini oshiradi. Ma'lumki, idish ichidagi biror massaga ega materialga beriladigan bosim kuchini qo'yidagicha aniqlaymiz.

$$dP = g \cdot \gamma \cdot A \cdot dh \quad (1)$$

bu yerda: dP -paxta oqimi massasiga ta'sir qiluvchi elementar bosim, N; A -yuzasi, m^2 ; g -erkin tushish tezlanishi, m/s^2 ; h -shaxtaning balandligi, m; γ – zichlik, kg/m^3 .

a - kichik asosini katta asosi b - ga, va qiyalik burchagi φ -ga hamda balandligiga bog'liqlik ifodasini aniqlaymiz:

$$a = b - 2 \cdot h \cdot tg\varphi$$

Shaxta-to'plagichning ko'ngdalang kesimi quyidagicha aniqlaymiz:


$$A = \frac{a+b}{2} \cdot h = b \cdot h - h^2 \cdot tg\varphi \quad (2)$$

Aniqlangan ushbu tenglikni (1) tenglikga qo'yib shaxta to'plagichga paxta oqimini beradigan bosimini aniqlaymiz:

$$dP = g \cdot \gamma \cdot (b \cdot h - h^2 \cdot tg\varphi) \cdot dh \quad (3)$$

bu yerda: $\gamma = \gamma_0 + m \cdot P^{0.5}$ ga teng deb olamiz, bu tenglikni (3) ifodaga qo'yib, shaxta to'plagichga paxta oqimining bosim kuchini balandligi bo'yicha o'zgarishini ifodalaymiz:

$$\int \frac{dP}{g\gamma_0(1+\frac{m}{\gamma_0}P^{0.5})} = \int (bh - h^2tg\varphi)dh \quad (4)$$



1-rasm. Mavjud va tavsiya variantidagi shaxta to'plagichning sxemasi

(4) ifodadan $P^{0.5} = z$ almashtirish kiritib $dP = 2 \cdot z \cdot dz$ bu tenglikni (4) ifodaga qo'yib integrallaymiz:

$$\frac{2}{gm} \left[z - \frac{\gamma_0}{m} \ln \left| z + \frac{\gamma_0}{m} \right| \right] + c = b \cdot \frac{h^2}{2} - \frac{h^3}{3} tg\varphi \quad (5)$$

yoki oldingi o'zgaruvchini ya'ni $P^{0.5} = z$ o'rniga qo'yib quyidagi tenglikni hosil qilamiz:

$$\frac{2p^{0.5}}{gm} - \frac{\gamma_0}{gm^2} \ln \left| p^{0.5} + \frac{\gamma_0}{m} \right| + c = b \cdot \frac{h^2}{2} - \frac{h^3}{3} tg\varphi \quad (6)$$

Boshlang'ich shartda bosim $P = 0$; $h = 0$ bo'lsa, u holda $c = \frac{2\gamma_0}{gm^2} \ln \left| \frac{\gamma_0}{m} \right|$


ga teng bo'ladi:

$$\frac{2p^{0,5}}{gm} - \frac{\gamma_0}{gm^2} \ln \left| p^{0,5} + \frac{\gamma_0}{m} \right| + \frac{2\gamma_0}{gm^2} \ln \left| \frac{\gamma_0}{m} \right| = \frac{bh^2}{2} - \frac{h^3}{3} tg\varphi \quad (7)$$


Shaxta to'plagichda paxta oqimining bosimini zichligiga va massasiga bog'liqlik ifodasini keltiramiz $P^{0.5} = \frac{\gamma - \gamma_0}{m}$, bu ifodani (7) tenglikka qo'yamiz. Bu tenglamani Lambert funksiyasi orqali ifodalaymiz $w(x)e^{w(x)} = x$

$$\gamma = \gamma_0 w \left(e^{\frac{gm^2 \left(\frac{bh^2}{2} - \frac{h^3}{3} tg\varphi \right) + \gamma_0 (1 + \ln \gamma_0)}{\gamma_0}} \right) \quad (8)$$

Ushbu tenglikdan foydalanib, Maple dasturida grafiklar qurildi.



2-rasm. Shaxta to'plagichda paxta oqimining zichligini shaxta to'plagich devorining qiyalik burchagini turli xil $\varphi_1 = 0^0$; $\varphi_2 = 1^0$ va $\varphi_3 = 2^0$ qiymatlarida balandligiga bog'liqlik grafigi



3-rasm. Shaxta to'plagichda paxta oqimining zichligini shaxta to'plagich asosining turli xil $b_1 = 150 \text{ mm}$; $b_2 = 250 \text{ mm}$ va $b_3 = 350 \text{ mm}$ qiymatlarida qiyalik burchagiga bog'liqlik grafigi

2 va 3-rasmlardagi grafiklar tahlilidan shaxta to'plagichda paxta oqimining zichligini kamayishi shaxta-to'plagichni qiyalik burchagining $\varphi_2 = 0^0$ qiymatida hamda asosining $b_2 = 250 \text{ mm}$ qiymatida paxta oqimining pastga tushgan sari zichligini o'zgartmasligini kuzatishimiz mumkin. Bu o'z navbatida bosimni kamayishiga olib keladi hamda paxta oqimining qoziqchali ta'minlovchi valik orqali qoziqchali-plankali barabanlarga bir me'yorda uzluksiz uzatishga xizmat qiladi.

Qoziqcha sirtidagi paxta bo'lakchasidan mayda iflosliklarni jadal tozalash samaradorligiga erishishda paxta bo'lakchasining A va B oraliqlaridan paxta oqimining o'tish jarayoni 4-rasmda keltirilgan. Paxta bo'lakchalariga qoziqchalar ta'sirida quyidagi tashqi kuchlar hosil bo'ladi.

Bunda: $F_{m,q} = \frac{m \cdot \vartheta^2}{R}$ – markazdan qochma kuch, N; $F_{x,q} = k \cdot \vartheta^2$ – qarshilik kuchi, N; m – paxta bo'lakchasining massasi, kg; ϑ – paxta bo'lakchasining tezligi, m/s; k – doimiy koeffitsiyenti, kg/m, ρ – paxta bo'lakchasining zichligi, kg/m³; A-paxta bo'lakchasining yuzasi, m²; g-erkin tushish tezlanishi, m/s².

Yoy bo'ylab joylashgan qoziqchalar ta'siridagi paxta bo'lakchalarining harakat differensial tenglamasini tuzamiz:


$$I \cdot \ddot{\varphi} = (k \cdot \vartheta^2 + N - m \cdot g \cdot \sin \varphi) \cdot L \quad (9)$$

bunda: $I = m \cdot L^2$ - paxta bo'lakchasining inersiya momenti.

$$N = m \cdot g \cdot \sin \varphi \quad (10)$$

ekanligini inobatga olib, (9) ifodani quyidagi ko‘rinishga keltiramiz:

$$\ddot{\varphi} = \frac{k \cdot \vartheta^2}{m \cdot L} \quad (11)$$



4-rasm. Paxta bo‘lakchalariga qoziqchalarni ta‘sirida hosil bo‘lgan tashqi kuchlarni sxemasi

(11) ifodani sodda ko‘rinishga keltirib ikkinchi tartibli bir jinsli bo‘lmagan differensial tenglamaga ega bo‘lamiz:

$$z^2 = \frac{k \cdot \vartheta^2}{m \cdot L} \quad (12)$$

ikkinchi tartibli bir jinsli bo‘lmagan differensial tenglamani hisoblaymiz. (12) tenglikka qo‘yib hisoblaymiz:

$$\ddot{\varphi} = z^2 \quad (13)$$

(13) tenglamani integrallaymiz:

$$\dot{\varphi} = z^2 \cdot t + C_1 \quad (14)$$

(14) tenglamadagi integral doimiysini boshlang‘ich shartdan foydalanib aniqlaymiz

$$\varphi = z^2 \cdot \frac{t^2}{2} + C_1 \cdot t + C_2 \quad (15)$$

(15) tenglikdan C_1 va C_2 integrallash doimiylarini aniqlash uchun boshlang‘ich shartlardan foydalanamiz. Ya‘ni $t = 0$ da $\varphi = 0$ $\dot{\varphi} = \omega_0$ boshlang‘ich shartlarini (15) tenglikka qo‘yib C_1 va C_2 aniqlaymiz.

$C_2 = 0$ $C_1 = \omega_0$ bu qiymatlarni (15) tenglikka qo‘yib bir jinsli qismidagi ifodagi aniqlaymiz.


$$\varphi = \frac{k \cdot \vartheta^2}{2m \cdot L} \cdot t^2 + \omega_0 \cdot t \quad (16)$$

(16) tenglikdan foydalanib, paxta bo‘lakchalarini qoziqchali-plankali baraban yuqorisida zarba ta‘siridagi harakatini Maple dasturidan foydalanib grafiklari qurildi. Hisoblashda quyidagi parametrlarni qiymatlari olingan: $\varphi_0 = 30^\circ$, $n_0 = 480$ ayl/daq, $R = 200$ mm, $m = 1.4 \cdot 10^{-2}$ kg.


$$S = L \cdot \varphi = L \cdot \left[\frac{k \cdot \vartheta^2}{2m \cdot L} \cdot t^2 + \omega_0 \cdot t \right] \quad (17)$$

Paxta bo‘lakchalarini qoziqchalar ta‘sirida siljishining burchak tezliklarini turli xil $n_1=460$ ayl/daq; $n_2=480$ ayl/daq; $n_3=500$ ayl/daq qiymatlarida qamrash burchagiga

bog‘liq grafiklaridan ko‘rinib turibdiki, qamrov burchagi oshgan sari barcha burchak tezliklarda paxta bo‘lakchalarini uzoq masofaga siljishi aniqlanmoqda. Eng katta qiymat barabanning burchak tezligi 500 ayl/daq. bo‘lganda erishilmoqda. Huddi shuningdek, qoziqchali-barabanlar ta‘sirida paxta bo‘lakchalarining siljishini ularning turli xil massalarini $m_1 = 1.4 \cdot 10^{-2} kg$; $m_2 = 1.6 \cdot 10^{-2} kg$; $m_3 = 1.8 \cdot 10^{-2} kg$ qiymatlarida qamrash burchagiga bog‘liqlik grafigida ham shunday natijalar qayd etildi.



5-rasm. Paxta bo‘lakchalarini qoziqchalar ta‘sirida siljishining burchak tezliklarini turli xil $n_1 = 460$ ayl/daq; $n_2 = 480$ ayl/daq; $n_3 = 500$ ayl/daq qiymatlarida qamrov burchagiga bog‘liqlik grafigi



6-rasm. Qoziqchali-barabanlar ta‘sirida paxta bo‘lakchalarining siljishini ularning turli xil massalarini $m_1 = 1.4 \cdot 10^{-2} kg$; $m_2 = 1.6 \cdot 10^{-2} kg$; $m_3 = 1.8 \cdot 10^{-2} kg$ qiymatlarida qamrov burchagiga bog‘liqlik grafigi

Nazariy olingan natijalarni amaliy tekshirib chiqish uchun shaxta-to‘plagichning enini o‘zgartirish imkoniyati mavjud tajriba namunasi tayyorlandi va 1XK/2→UXK→UXK→UXK→1XK/2 uskunalar majmuasidagi texnologik jarayonda tajribalar olib borildi. Tajribalar shaxta-to‘plagichning enini 150, 200, 250, 300, 350 va 400 mm oraliqlarda o‘tkazildi. Tajriba natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval


Shaxta-to‘plagich kengligini tozalash jarayoniga ta‘sirini aniqlash bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari

№	Ko‘rsatkichlar	Shaxta-to‘plagichning kengligi, mm					
		150	200	250	300	350	400
1.	Paxtaning umumiy iflosligi, %	3,0/7,9					
2.	- mayda ifloslik	1,6/4,3					
3.	- yirik ifloslik	1,4/3,6					
4.	Paxtaning namligi, %	8,8/10,9					
5.	Tozalashdan so‘ng paxtadagi iflos aralashmalar miqdori, %	0,2301/ 0,3105	0,2514/ 0,3381	0,2715/ 0,3876	0,329/ 0,421	0,3717/ 0,4764	0,4125/ 0,4962
6.	Tozalash agregatining umumiy tozalash samaradorligi, %	92,33/ 89,65	91,62/ 88,73	90,95/ 87,08	89,0/ 85,97	87,61/ 84,12	86,25/ 83,46
7.	Shaxta-to‘plagichdagi paxtaning tezligi, m/s	0,100	0,075	0,060	0,050	0,043	0,037
8.	10 marta takrorlangan tajribalarda shaxtada paxtani tiqilib qolishlar soni, marta	18/34	4/16	-/-	-/-	-/-	-/-

Izoh: 5 va 6 qatorlardagi kasrning suratida I nav paxta xomashyosi, maxrajida esa III nav paxta xomashyosi bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba natijalari keltirilgan.

Shaxta-to'plagichning eni 400 mm dan 150 mm gacha kichrayib borishida tozalash samaradorliklari yuqori bo'lishiga qaramasdan 150 va 200 mm bo'lganda, paxtani shaxta-to'plagichda tiqilib qolish holatlari aniqlandi. Demak paxtani erkin tiqilishlarsiz harakatlanishi uchun uning kengligi 200 mm dan katta bo'lishi tavsiya etiladi.

Shaxta-to'plagichning kengligini o'zgarishi undagi paxta zichligiga ta'sirini o'rganish maqsadida shaxta-to'plagich enining 150, 200, 250, 300, 350 va 400 mm oraliqlarda tajribalar o'tkazildi. Shartli ravishda shaxta-to'plagichning balandligi bo'yicha 3 qismga ajratildi. Ushbu qismlarda joylashgan paxtaning zichliklari alohida aniqlandi. Buning uchun shaxta-to'plagichning old organik oynasiga qismlarni aniqlash uchun har 466 mm ga belgilar quyildi va ushbu belgilarda joylashgan paxta ajratib olindi.



1 - I – qism; 2 - II – qism va 3 - III – qism.

7-rasm. Shaxta-to'plagich eni kengligining undagi paxta qatlamlari bo'yicha zichliklariga ta'siri

Shaxta-to'plagich enining kengligi 150 mm bo'lganda yuqori qatlamda 64 kg/m³, quyi qatlamda esa 65 kg/m³ni tashkil etib, zichlikning shaxta-to'plagichning balandligi bo'yicha atiga 1 kg/m³ga oshishi kuzatilmoqda. Shaxta-to'plagich enining kengligi 200 mm bo'lganda 68 kg/m³ gacha, 250 mm da 70 kg/m³ gacha, 300 mm da 73 kg/m³ gacha, 350 mm da 74 kg/m³ gacha, 400 mm da 77 kg/m³ gacha oshishi aniqlandi.

Tadqiqotlarda ko'rilgan shaxta-to'plagichning eni, ish unumdorlik va ta'minlovchi valik va qoziqchali baraban oraliq masofasini tozalash samaradorligiga ta'sirini regressiya modelini tuzamiz. Tajriba o'tkazish shartlari 2-jadvalda keltirilgan. Chiquvchi parametrlarning tajribaviy natijalari va dispersiyalari 3-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Tajribaning rejalashtirish sharti

№	Omilning nomi, belgisi	Kodlash-tirilgan belgisi	Faktoring haqiqiy qiymatlari			O'zgarish oralig'i
			-1	0	+1	
1	Shaxta-to'plagichning eni, mm	x_1	240	320	400	80
2	Ta'minlovchi valik va qoziqchali baraban oraliq masofasi, mm	x_2	0	75	150	75
3	Tozalagichning ish unumdorligi, t/soat	x_3	5	7	9	2

Rejalashtirish matritsasi, tajriba va hisobiy natijalar

№	Omillar			Tozalash samaradorligi			\bar{y}_u	S_u^2
	x_1	x_2	x_3	y_{u1}	y_{u2}	y_{u3}		
1	-	-	-	48,3	46,6	47,8	47,57	0,7633
2	+	-	-	41,6	42,4	42,2	42,07	0,1733
3	-	+	-	46,8	47	45,3	46,37	0,8633
4	+	+	-	39,4	40,3	38,7	39,47	0,6433
5	-	-	+	40,5	41	39,8	40,43	0,3633
6	+	-	+	37,8	37,2	36,7	37,23	0,3033
7	-	+	+	38,0	38,4	39	38,47	0,2533
8	+	+	+	34,4	36,5	35,2	35,37	1,1233

Tajriba natijalarini, kompyuter dasturlaridan foydalanilgan holda, dastlabki ishlash natijasida Fisher kriteriyasi bo'yicha barcha chiqish parametrlarini yetarli darajada tavsiflovchi quyidagi regressiya tenglamalari olindi:

$$y_R = 40,87 - 2,34 \cdot x_1 - 0,95 \cdot x_2 - 3,0 \cdot x_3 + 0,76x_1x_3 \quad (18)$$

Tozalash samaradorligini eng yuqori qiymatiga erishish uchun shaxta-to'plagichning eni 240 mm, ta'minlovchi valik va qoziqchali baraban oraliq masofasi 50 mm va tozalagichning ish unumdorligi 5 tonna/soat bo'lishi tavsiya etiladi.

Dissertatsiyaning **“Paxtani mayda iflosliklardan shnekli tozalash uskunasi nazarini va amaliy tadqiqi”** deb nomlangan uchinchi bobida shnekli tozalagich qoziqchalari konstruksiyasini tanlash, takomillashtirilgan qoziqchali shnekning paxta oqimiga ta'sirini nazariy tahlili, yirik iflosliklardan tozalashda tozalash takroriyiligini eshilgan tolalarini rostlanishiga ta'siri, eshilgan paxtani arrachali barabanlarda qayta ishlash takroriyiligini tozalash samaradorligiga ta'siri, qoziqchalarning og'ish burchagi va o'lchamlarining tozalash samaradorligiga ta'siri, shnekli tozalagich qoziqchalarining qiyalik burchagini turli qiymatlarida xomashyo namligining paxtani eshilishiga ta'siri, takomillashtirilgan shnekli tozalagichning regressiya modelini qurish ishlari olib borildi.

Paxtani dastlabki qayta ishlash jarayonida samaradorlikni oshirish maqsadida olib borilgan tadqiqotlarda, 6A-12M rusumli shnekli tozalagich qo'llanilganda va uning o'rniga 1XK rusumli tozalash uskunasi qo'llanganda, tozalash samaradorligining dinamik o'zgarishlari hamda texnologik ko'rsatkichlarga ta'siri o'rganildi. Tadqiqotlar davomida turli sanoat navlaridagi paxta xomashyosi bo'yicha iflosliklarning kamayish darajasi, tolalarning eshilish koeffitsienti va yakuniy tozalash samaradorligi kabi muhim parametrlar solishtirma tahlil qilindi.

Tadqiqotlarda Namangan-77 seleksiyasining I va IV sanoat navidagi paxta xomashyolaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari 4-jadvalda keltirilgan.


Tozalash samaradorligi 6A-12M ishlatilmaganda I navda 83.5%, IV navda 81.9% bo'lgan bo'lsa, 6A-12M ishlatilganda mos ravishda 89.3% va 86.7% ga oshdi.

Shnekli tozalagich qo'llanganda paxtaning eshilishi I navda 0.9% dan 30.6% gacha, IV navda esa 1.8% dan 34.2% gacha keskin oshgan. 6A-12M shnekli tozalagich ishlatilganda paxtaning tozalash samaradorligi ortadi va ifloslik kamayadi. Biroq tolalarning eshilishi keskin oshishi aniqlandi.

**Shnekli tozalagich foydalanilganda tozalash samaradorligiga ta'sirini o'rganish
bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari**

№	Ko'rsatkichlar	6A-12M1 foydalanilmaganda		6A-12M1 foydalanilganda	
		I sanoat navi	IV sanoat navi	I sanoat navi	IV sanoat navi
1.	Paxtani dastlabki namligi, %	10,6	15,9	10,6	15,9
2.	Paxtani dastlabki iflosligi, %	6,7	13,5	6,7	13,5
3.	Tozalash jarayonidan so'ng ifloslik miqdori, %	1,11	2,44	0,72	1,80
4.	Tozalash samaradorligi, %	83,5	81,9	89,3	86,7
5.	Paxtani eshilganligi, %	0,9	1,8	30,6	34,2

Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida shnekli tozalash uskunasi qoziqchalarning geometrik shaklini o'zgartirish, paxta qatlami va uning to'rtli yuza bo'ylab harakatlanib o'tish trayektoriyasini optimallashtirish hamda shnek atrofidagi aylanma-spiral harakat dinamikasiga ta'sir ko'rsatish orqali paxta tolalarida yuzaga keladigan mexanik deformatsiyalarni kamaytirish va tozalash jarayonining samaradorligini oshirish imkoniyati yaratiladi (8-rasm).



8-rasm. Qoziqchalari o'zaro burchak ostida joylashtirilgan shnek ta'siridagi paxta oqimining harakat sxemasi

Shnekli tozalagichda paxta oqimining harakati differensial tenglamasini tuzamiz:

$$m \cdot R \cdot \ddot{\varphi} = -fmg \sin \gamma + mR\dot{\varphi}^2 + mg \cdot \cos \gamma \quad (19)$$

(19) differensial tenglamaga yuqoridagi kuchlar qiymatlarini qo'yib hisoblaymiz:

$$mR\ddot{\varphi} - mR\dot{\varphi}^2 = mg(\cos \gamma - f \cdot \sin \gamma)$$

Bu differensial tenglamani sodda ko'rinishga keltiramiz:

$$\ddot{\varphi} - \dot{\varphi}^2 = \frac{g}{R}(\cos \gamma - f \sin \gamma) \quad (20)$$

$\dot{\varphi} = \omega$; $A^2 = \frac{g}{R}(\cos \gamma - f \sin \gamma) > 0$ deb belgilashlar kiritib (20) differensial tenglamani sodda ko'rinishga keltiramiz.

$$\dot{\omega} - \omega^2 = A^2 \quad (21)$$

(21) tenglikdan quyidagi ifodani hosil qilamiz

$$\int \frac{d\omega}{A^2 + \omega^2} = \int dt \quad (22)$$

Bu tenglikni integrallaymiz

$$\frac{1}{A} \operatorname{arctg} \frac{\omega}{A} = t + c_1$$

$$\frac{\omega}{A} = \operatorname{tg}(At + c_1)$$

c_1 integral doimiysini boshlang'ich shartlar $\varphi(0) = \varphi_0$; $\dot{\varphi}(0) = 0$ dan foydalanib, aniqlaymiz: $c_1 = 0$


$$\varphi = A \int \operatorname{tg} At dt = -\ln|\cos At| + c_2 \quad (23)$$

(23) tenglikdagi c_2 integrall doimiysini $t = 0$; $\varphi(0) = \varphi_0$ shartdan aniqlaymiz


$$\varphi = -\ln|\cos At| + \varphi_0$$

$$\varphi = -\ln \left| \left(\frac{g}{R} \cos \gamma - f \sin \gamma \right) t \right| + \varphi_0 \quad (24)$$

Maple dasturidan foydalanib grafiklar qurildi (9-10-rasmlar). Hisoblashlarda quyidagi parametrlar keltirilgan $\gamma = 30^\circ$; $f = 0.02$; $g = 9.81 \text{ m/s}^2$; $R = 0,275 \text{ m}$; $n = 250 \div 300 \text{ ayl/daq}$; $\gamma = \operatorname{arctg} \frac{S}{L}$ bu tenglikdagi $L = 2 \cdot \pi \cdot R$ qoziqchali shnekning aylana uzunligiga joylashtirilgan qoziqchalar soni 52 gacha o'rnatilgan.



9-rasm. Paxta harakatini vintning turli xil burchak tezliklarini $n_1 = 250 \text{ ayl/daq}$; $n_2 = 270 \text{ ayl/daq}$; $n_3 = 300 \text{ ayl/daq}$ qiymatlarida vaqtga bog'liqlik grafigi



10-rasm. Paxta harakatini vint qoziqchalarining turli xil og'ish burchak qiymatlarida $\alpha_1 = 60^\circ$; $\alpha_2 = 45^\circ$ va $\alpha_3 = 30^\circ$ vaqtga bog'liqlik grafigi

Paxta oqimi tarkibidan mayda iflosliklarni ajratishda vint qoziqchalari hamda to'rtli yuzalarning o'lchamlari ta'siridagi A.G. Sevostyanov modeliga ko'ra, iflos aralashmalarning ajralishi natijasida massasining pasayishi ifodaga to'g'ri keladi:

$$\frac{dm}{m} = -\lambda \cdot \frac{dp}{\rho} \quad (25)$$

Bunda, λ – tozalash samaradorlik koeffitsienti.

Ifodani integrallab va boshlang'ich shartidan foydalanib, paxta oqimining dastlabki massalari hamda zichliklari bo'yicha $m = m_0$, $\rho = \rho_0$ keyingilarini olamiz:

$$\frac{m_1}{m_0} = \left(\frac{\rho_0}{\rho_1} \right)^\lambda \quad (26)$$

Qamrov burchagi bo'yicha ajralayotgan iflosliklarning nisbiy massasini aniqlaymiz:

$$\varepsilon(\varphi) = \frac{m_0 - m_1}{m_0} = 1 - \left[\frac{\vartheta_0(\varphi)}{\vartheta_1(\varphi)} \right]^\lambda \quad (27)$$

$\varepsilon(\varphi)$ paxta oqimining qoziqchali shnek ta'siridagi uzluksiz funksiya shartidan foydalaniladi.


Paxta oqimidan ajralayotgan iflos aralashmalarning umumiy miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$Q = Q_0 \int_{\varphi_0}^{\varphi_1} \varepsilon(\varphi) \cdot d\varphi, \quad (28)$$


(28) ifoda paxta oqimining sarfini chiqishdagi sarfiga bog'liqligidan ajralayotgan iflosliklarning nisbiy massasiga bog'liqlik ifodasidan:

$$\varepsilon = \frac{m_0 - m}{m_0} = 1 - \frac{m}{m_0} = 1 - e^{-\lambda \cdot (\vartheta_0 + \varphi R)} \quad (29)$$

iflosliklarni ajratishda qo'llanilayotgan qoziqchali shnekning samaradorligiga ta'sirini tekshiramiz. Tozalash samaradorligi quyidagi 11-12-grafiklarda keltirilgan bo'lib, λ ni har xil qiymatlarida t vaqt bo'yicha o'zgarishi aniqlangan.



11-rasm. Tozalash samaradorligi ko'effitsiyentining qoziqchali shnekning turli xil burchak tezliklarini $n_1 = 300$ ayl/daq; $n_2 = 270$ ayl/daq; $n_3 = 250$ ayl/daq qiymatlarida vaqt bo'yicha o'zgarish grafigi




12-rasm. Tozalash samaradorligi ko'effitsiyentining vint qoziqchalari orasidagi turli xil burchak qiymatlarida $\alpha_1 = 15^\circ$; $\alpha_2 = 45^\circ$ va $\alpha_3 = 75^\circ$ vaqt bo'yicha o'zgarish grafigi

Paxta oqimidan iflos aralashmalarni samarali tozalashda qoziqchali shnekning burchak tezligini 300 ayl/daq qiymatida va uning qoziqchalarini og'ish burchagini 15° qiymatida eng yuqori tozalash samaradorligi ko'effitsiyentiga erishilishi aniqlandi.


Qoziqchalarni shnek perosining perpendikulyar o'qiga nisbatan og'ish burchaklari 15° , 30° , 45° , 60° va mavjud variant sifatida 90° holatlarda o'rnatilib, ularning tozalash samaradorligiga ta'siri bo'yicha eksperimental izlanishlar olib borildi (13-rasm).

Tadqiqotlarda Namangan-77 seleksiyasiga mansub, namlik darajasi $8,2\%$ va ifloslik miqdori $5,6\%$ bo'lgan paxta xomashyosi qo'llanildi. Tozalagichning ish unumdorligiga qoziqli shnek konstruksiyasining ta'sirini aniqlash maqsadida tajribalar 4 , 6 va 8 t/soat ishlab chiqarish unumdorliklarida o'tkazildi.

O'tkazilgan tajriba natijalari grafik ko'rinishda 14–15-rasmlarda keltirilgan.



13-rasm. Tozalagichning qoziqchali shnek perosiga nisbatan turli xil og'ish burchaklaridagi qoziqchalarning umumiy ko'rinishi




14-rasm. Tozalagichning shnek qoziqchalarini turli xil og'ish burchaklarida tozalash samaradorligini o'zgarish grafigi


Qoziqchani og'ish burchagi 15° bo'lganda, 45° ga nisbatan paxta tolalarini eshilganligi uskuna shnek perosining bir tomoniga o'rnatilganda o'rtacha 2,1÷3,0 % ga va qoziqchali shnek perosini ikki tomoniga o'rnatilganda esa o'rtacha 3,1÷3,7 % ga ko'p bo'lishi aniqlandi. Qoziqchani og'ish burchagi 15° bo'lganda, tozalash samaradorligining eng yuqori qiymatiga erishilmoqda. Tozalash samaradorligini oshishiga asosiy sabab uskunaning shnek perosidan qoziqchalar

uchining uzoqlashishi, paxtani zarba ta'sirida dumalash o'rniga sudralishi va paxtaga berilayotgan zarba kuchlarining o'zgarishi bilan sodir bo'lmoqda.

Paxta tolalarini eshilganligi keyingi tozalash jarayonlarida iflosliklarni ajralishini qiyinlashtiradi va turli xil nuqsonlar hosil bo'lishiga olib keladi, shuning uchun qoziqchani qiyalik 15° dan keyin eng yuqori tozalash samaradorligi qayd etilgan qoziqchani qiyalik burchagi 45° da o'rnatgan holda ishlab chiqarish sharoitida tajribalar o'tkazishni maqsad qildik.






Qoziqchani og'ish burchagi, gradus qoziqlar shnek perosining bir tomonida joylashganda



Qoziqchani og'ish burchagi, gradus qoziqlar shnek perosining ikki tomonida joylashganda

15-rasm. Tozalagichning shnek qoziqchalarini turli qiyalik qiymatlarida paxta bo'lakchalarini eshilishini o'zgarish grafigi

Paxta namligini shnekli tozalagich qoziqchalarining og'ish burchaklarini turli qiymatlarida xomashyoning eshilishiga ta'sirini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. Tadqiqotlarda Namangan-77 seleksiya navining namligi 8,1; 8,9 va 9,4 % bo'lgan paxta xomashyosidan foydalanildi. Olib borilgan tajribalarning natijalari 16-rasmda berilgan.



16-rasm. Paxta namligini shnek perosining ikki tomonida qoziqchalar joylashganda paxta tolalarini eshilishiga ta'siri

Mavjud 6A-12M1 tozalagichidagi qoziqchali shnekka qaraganda shnek perosiga nisbatan qiya holatda o'rnatilgan qoziqchali shneklarning paxta tolalarininig

eshilganligi kam bo'lishi aniqlandi. Shuningdek, tozalagich shnek perosining ikki tomoniga qiya qoziqchalar joylashtirilganda paxta tolalarini eshilishini namlik darajasi 8,1 % bo'lganda 2,3 %gacha, paxtaning namligi 8,9 % bo'lganda 1,7 %gacha va paxtaning namligi 9,4 % bo'lganda esa 2,7 %gacha kamaytirishga erishilmoqda. Paxta 6A-12M1 rusumli mayda iflosliklardan tozalagichdan o'tkazilganda tolada vujudga keladigan eshilishni to'g'rilanishiga arrachali barabanlarda tozalash jarayonida tozalash takroriyiligini ta'sirini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar olib borildi.

Amaldagi 6A-12M1 tozalash uskunasidan foydalanilganda eshilgan paxta bo'laklari soni 41 tadan 18 tagacha, ya'ni 56,1% gacha kamaydi. Tavsiya etilgan 6A-12M1 tozalash uskunasidan foydalanilganda eshilgan paxta bo'laklari soni 28 tadan 9 tagacha, ya'ni 67,9% ga kamaydi. Tavsiya etilgan 6A-12M1 uskunasida takomillashtirilmagan konstruksiyasiga nisbatan 50%ga eshilgan paxta bo'laklari miqdorini kamaytirishga erishildi.

6A-12M1 tozalash uskunasidan foydalanilganda eshilgan paxta bo'lakchalaridagi chigitlar soni 131dan 38tagacha, ya'ni 71,0% gacha kamaytirishga erishildi. Tavsiya etilgan 6A-12M1 uskunasida takomillashtirilmagan konstruksiyasiga nisbatan 49,3%ga eshilgan paxta bo'laklaridagi chigitlar sonini kamaytirishga erishildi.

Eshilgan paxtani arrachali barabanlarda qayta ishlash takroriyiligini tozalash samaradorligiga ta'siri tadqiq etildi. Tadqiqotlarda uch xil texnologiyadan o'tkazildi. 1va 2-variantlarda mavjud va takomillashtirilgan 6A-12M1 qo'llanilib, 4 ta QB → 1-AB → 4 ta QB → 2-AB → 4 ta QB → 3-AB → 4 ta QB; 3-variantda 6 ta QB → 1- AB → 4 ta QB → 2- AB → 4 ta QB → 3- AB → 6 ta QB.

5-jadval

Shnekli tozalagichni tozalash samaradorligiga ta'sirini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari

№	Ko'rsatkichlar	Tozalash texnologiyalari					
		1-variant		2-variant		3-variant	
		I nav	IV nav	I nav	IV nav	I nav	IV nav
1.	Paxtani dastlabki namligi, %	9,8	14,7	9,8	14,7	9,8	14,7
2.	Paxtani dastlabki iflosligi, %	7,6	14,7	7,6	14,7	7,6	14,7
3.	Tozalash jarayonidan so'ng ifloslik miqdori, %	0,81	1,96	0,50	1,38	1,10	2,37
4.	Tozalash samaradorligi, %	89,3	86,7	93,4	90,6	85,5	83,9
5.	Paxtani eshilish darajasi, %	30,6	34,2	27,2	30,5	1,1	1,9

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, paxtani iflos aralashmalardan tozalash samaradorligi 2-variantdagi tozalash texnologiyasida eng yuqori natija kuzatildi, I sanoat navida tozalash samaradorligi 93,4%, IV sanoat navida esa 90,6% ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar shnekli tozalagichning konstruktiv jihatdan takomillashtirilishi natijasida paxtaning harakatlanishi va zarba ta'sirining optimal muvofiqlashtirilganini tasdiqlaydi. 1-variantdagi texnologiyada I navda 89,3%, IV navda esa 86,7% qayd etildi. 3-variantdagi texnologiyada eng past natijalar qayd etildi: I sanoat navida 85,5%, IV sanoat navida esa 83,9%.

Takomillashtirilgan uskunada mayda iflosliklarni ajratish jarayonida tozalash samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillarga: paxtaning dastlabki namligi, ish unumdorligi, qoziqchanning og'ish burchagi va ishchi qismlarning texnik holatlari

kiradi.

Tadqiqotlarda ko‘rilgan paxtaning namligi, qoziqchanning og‘ish burchagi va tozalagichning ish unumdorligini tozalash samaradorligiga ta‘sirini e‘tiborga olib, matematik modeli qurildi. x_1 – paxtaning namligi 7,5, 8,5 va 9,5 foizlarda, o‘zgarish oralig‘i 1 %; x_2 – qoziqchanning qiyalik burchagi 15, 52,5 va 90⁰ graduslarda, o‘zgarish oralig‘i 37,5⁰; x_3 – tozalagichning ish unumdorligi 4, 6 va 8 t/soat, o‘zgarish oralig‘i 2 t/soat oralig‘ida olindi. Chiquvchi parametr sifatida tozalash samaradorligi olindi.

Chiquvchi parametrning tajribaviy natijalari asosida hisob ishlari olib borilib, modelning dastlabki ko‘rinishi olindi va dastlabki modelni ahamiyatli-ahamyatsiz koeffitsiyentlari tekshirildi hamda modelning adekvantligi Fisher me‘zoni bo‘yicha aniqlanib, quyidagi ifoda olindi:


$$y_R = 60,49 - 2.78 \cdot x_1 - 2.76 \cdot x_2 - 3.88 \cdot x_3 + 0.55 \cdot x_1 \cdot x_2 + 0.61 \cdot x_1 \cdot x_3 \quad (30)$$

Olingan model bo‘yicha shnekli tozalagichning tozalash samaradorligi eng yuqori qiymatda bo‘lishi uchun namlik miqdori $x_1 = 7.5 - 8.5$ %, qoziqchanning qiyalik burchagi $x_2 = 45^0$ da, tozalagichning ish unumdorligi $x_3 = 4 \div 6$ t/soatda bo‘lishi tavsiya etildi.

Dissertatsiya ishining **“Paxta regeneratorining nazariy va amaliy taqqiqiqi”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida paxta regeneratorining takomillashtirilgan konstruksiyasini tanlash, yo‘naltirgich ta‘sirida paxta oqimidan iflosliklarni ajratishdagi nazariy tahlili, takomillashtirilgan paxta regeneratorining regression modelini qurish, mexanik usulda ishlovchi regeneratorning tozalash samaradorligini amaliy tadqiqi hamda regeneratorning mahsulot yo‘qolishini bartaraf etilishiga ta‘sirini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Paxta regeneratorining asosiy ishchi qismlariga arrachali baraban, kolosnikli panjara, ilashtiruvchi cho‘tka, cho‘tkali baraban va havo tizimi kiradi. Mavjud paxta regeneratorida havoning ishtiroki natijasida paxtaga ilashmagan iflosliklarning tozalanmasdan tranzit holda o‘tib ketishi oqibatida tozalash samaradorligini pasayishiga olib keladi. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun havo tizimidan foydalanilmagan holda paxta regeneratorida bir necha marta tozalash imkoniyatini beruvchi ta‘minlagich, yo‘naltirgich va cho‘tkali baraban o‘rnatish tavsiya etildi.

Cho‘tkali barabandan otib berilgan ifloslik aralashgan paxta bo‘lakchalarini yo‘naltirgich ta‘siri natijasida harakatlanish jarayondagi tashqi kuchlar ta‘sirida yo‘naltirgichning oraliq masofasi va og‘ish burchaklariga bog‘liqlik ifodasini aniqlaymiz. Buning uchun dastavval paxta oqimini yo‘naltirgich ta‘sirini o‘rganib chiqamiz (17-rasm).



17-rasm. Yo‘naltirgich sirtidagi paxta bo‘lakchasining harakat sxemasi

Bunda: $P_o = c \cdot v^2$ –havo oqimining aerodinamik kuchi, $m \cdot g$ –paxta bo‘lakchasini og‘irlik kuchi, $F_{is} = f \cdot R_n$ –paxta bo‘lakchasini yo‘naltirgich sirtidagi

ishqalanish kuchi; β –yo‘naltirgichning qiyalik burchagi, h –yo‘naltirgichlar orasidagi masofalarni L –yo‘naltirgich uzunligi.

Paxta oqimini iflosliklardan tozalashda yo‘naltirgich sirtidagi harakatida tashqi kuchlarni ta’sirini nazariy tahlilini keltiramiz:

$$m \cdot \ddot{x} = F_{uuu} - P_0 - mg \cdot \cos\beta \quad (31)$$

Yo‘naltirgich ta’sirida paxta oqimini harakatlanishida yo‘naltirgich orasidagi masofalarni $h = 150 \div 250$ mm ga o‘zgartirish orqali paxta oqimiga ta’sir qiluvchi tashqi kuchlar ta’siridagi differensial tenglamasini quyidagicha ifodalaymiz:

$$F_{uuu} = f \cdot mg \cdot \sin\beta$$

$$m \cdot \ddot{x} = f \cdot m \cdot g \cdot \sin\beta - c \cdot \vartheta^2 - m \cdot g \cdot \cos\beta \quad (32)$$

(32) differensial tenglamani soddalashtiramiz va integrallaymiz.

$$m \cdot \ddot{x} + c\vartheta^2 = m \cdot g \cdot (f \cdot \sin\beta - \cos\beta)$$

$\vartheta^2 = \dot{x}^2$ teng bo‘lganligini e’tiborga olib,

$$m \cdot \ddot{x} + c \cdot \dot{x}^2 = m \cdot g \cdot (f \cdot \sin\beta - \cos\beta) \quad (33)$$

Bu ifodani soddalashtirib ikkinchi tartibli bir jinsli bo‘lmagan differensial tenglama ko‘rinishga keladi

$$\vartheta = \dot{x}; \quad \dot{\vartheta} = \ddot{x}$$

$$m \cdot \dot{\vartheta} + c \cdot \vartheta^2 = F_0 \quad (34)$$

$$F_0 = mg \cdot (f \cdot \sin\beta - \cos\beta)$$

(34) differensial tenglamada $\vartheta^2 = \dot{x}^2$ ekanligidan

$$m \cdot \dot{\vartheta} = F_0 - c \cdot \vartheta^2 \quad (35)$$

(35) differensial tenglamaga quyidagi belgilash kiritamiz

$$\frac{m d\vartheta}{F_0 - c \cdot \vartheta^2} = dt \quad \frac{m d\vartheta}{F_0(1 - \frac{c}{F_0} \cdot \vartheta^2)} = dt \quad (36)$$

(36) differensial tenglamani $\int \frac{dn}{a^2 - n^2} = \frac{1}{2a} \ln \left| \frac{n+a}{n-a} \right| + c$ ekanligidan

$$\frac{m d\vartheta}{c \left(\frac{F_0}{c} - \vartheta^2 \right)} = dt$$

tenglikni integrallaymiz

$$\frac{m}{c} \cdot \frac{1}{2\sqrt{\frac{F_0}{c}}} \ln \left| \frac{\vartheta + \frac{F_0}{c}}{\vartheta - \frac{F_0}{c}} \right| = t + c_1 \quad (37)$$

c_1 integral doimiysini boshlang‘ich shartdan $\vartheta(0) = \vartheta_0$ foydalanib aniqlaymiz.

$c_1 = \frac{c\vartheta_0 + F_0}{c\vartheta_0 - F_0}$ integral doimiysini

$$\vartheta = \frac{1 + c_1 l^{\frac{2\sqrt{F_0 c}}{m}} t}{l^{\frac{2\sqrt{F_0 c}}{m}} t - 1} \cdot \frac{F_0}{c} \quad (38)$$


(38) tenglamani OX o‘qi bo‘yicha harakat tenglamasini aniqlaymiz. $x = \int \vartheta dt$ ekanligidan

$$x = \frac{m}{c} \ln \left(\cos \sqrt{\frac{c \cdot F_0}{m^2}} (t + c_1) \right) + c_2 \quad (39)$$


(39) tenglamadagi c_2 integral doimiysini boshlang‘ich shartlardan foydalanib aniqlaymiz. $t = 0; x = 0 \Rightarrow c_2 = 0$ boshlang‘ich shartlardan foydalanib aniqlaymiz.

$$x = \frac{m}{c} \ln \left(\cos \sqrt{\frac{c \cdot F_0}{m^2}} \left(t + \frac{m}{\sqrt{c \cdot F_0}} \arctg \left(\vartheta_0 \sqrt{\frac{c}{F_0}} \right) \right) \right) \quad (40)$$

(40) harakat tenglamasini Maple dasturidan foydalanib, yo'naltirgich sirtidagi iflosliklarga aralashgan paxta oqimi trayektoriyalarini β – yo'naltirgichning qiyalik burchagiga, h – yo'naltirgichlar orasidagi masofalarni o'zgartirishiga bog'liqlik grafiklari qurildi.



18-rasm. Yo'naltirgich sirtida iflosliklarga aralashgan paxta oqimi harakatini qiyalik burchagining turli xil $\beta_1 = 55^0$; $\beta_2 = 65^0$; $\beta_3 = 75^0$ qiymatlarida vaqtga bog'liqlik grafigi



19-rasm. Yo'naltirgich sirtida iflosliklarga aralashgan paxta oqimi harakatini yo'naltirgich orasidagi masofasini turli xil $h_1 = 250 \text{ mm}$; $h_2 = 200 \text{ mm}$ va $h_3 = 150 \text{ mm}$ qiymatlarida vaqtga bog'liqlik grafigi

18 va 19-rasmlardagi grafiklardan paxta oqimini iflosliklardan regeneratsiyalashda yo'naltirgichning o'rnatish burchagi $\beta_3 = 65^0$ va ularning oraliq masofasi $h_2 = 150 \text{ mm}$ qiymatlarida regeneratsiyalash samaradorligi oshishini ko'rishimiz mumkin.

Yo'naltirgichning turli xil parametrlarini paxtani tozalash samaradorligiga ta'sirini o'rganishda yo'naltirgichning og'ish burchagi, ularni soni va o'zaro oraliq masofasini e'tiborga olib, matematik modeli qurildi. Yo'naltirgichning og'ish burchagi x_1 ning qiymatlari 55, 65 va 75^0 graduslarda, o'zgarish oraliq'i 10^0 gradus; yo'naltirgichlar soni x_2 ning qiymatlari 4, 7 va 10 dona, o'zgarish oraliq'i 3; yo'naltirgichlar orasidagi masofa x_3 ning qiymatlari 100, 150 va 200 mm, o'zgarish oraliq'i 50 mm oraliq'ida olindi. Chiquvchi parametr sifatida tozalash samaradorligi olindi.

Chiquvchi parametrning tajribaviy natijalari asosida hisob ishlari olib borilib, modelning dastlabki ko'rinishi olindi va dastlabki modelni ahamiyatli-ahamyatsiz koeffitsiyentlari tekshirildi hamda modelning adekvantligi Fisher me'zoni bo'yicha aniqlanib, model quyidagi ko'rinishga keldi:

$$y_R = 93.64 - 0.35 \cdot x_1 + 0.70 \cdot x_2 - 2.11 \cdot x_3 + 0.65 \cdot x_1 \cdot x_2 - 0.70 \cdot x_1 \cdot x_3 - 1.1292 \cdot x_2 \cdot x_3$$

Olingan model bo'yicha regenerator yo'naltirgichining qiyalik burchagi 65^0 , yo'naltirgichlar soni 8ta va ularning oraliq masofasi 150 mm bo'lganda tozalash samaradorligining eng yuqori qiymatiga erishilishi aniqlandi.


Iflosliklarga qo'shilgan paxtani regeneratsiyalashda uskunaning regeneratsiyalash samaradorligi tolali mahsulotlarni yo'qolish miqdorini belgilaydi. Izlanishlar natijasida tavsiya etilayotgan paxta regeneratorining mahsulot yo'qolishini

kamaytirish darajasini aniqlash maqsadida tajribalar olib borildi. Ushbu tajribalarda Sulton seleksiyasidagi I va IV sanoat navidagi 2-sinf paxta xomashyosidan foydalanildi. Paxtaning dastlabki namlik darajasi 10,4 va 14,1 %larni, ifloslik darajasi 8,5 va 13,2 %larni tashkil etdi.

Regeneratorda yo‘naltirgichlar soni 8ta va ularning qiyalik burchagi 65° qilib o‘rnatilib, tadqiqotlar olib borildi. Har bir tajribalar 5 takrorlanishda o‘tkazilib, o‘rtacha qiymatlari qayd etildi.

Mavjud paxta regeneratoring texnik pasportiga asosan, I nav paxtani dastlabki ishlashda ajralgan chiqindi tarkibidagi paxta bo‘lakchalari miqdori 15 %dan ko‘p bo‘lmaganda va ish unumdorlik 1000 kg/soatdan oshmaganda regeneratsiyalash samaradorligi 95%dan kam emas hamda tozalash samaradorligi 90%dan kam emas deb keltirilgan. Lekin ishlab chiqarish sharoitida o‘tkazilgan tajribalardan ma‘lumki, regeneratoring ish unumdorligi 500-600 kg/soatni tashkil etganda ham tozalash samaradorligi 80 % va regeneratsiyalash samaradorligi 92,5 %dan oshmasligi aniqlangan. Texnik pasportida keltirilgan ko‘rsatkichlar bilan solishtirilganda ham takomillashtirilgan regeneratoring samaradorliklari tozalash bo‘yicha 2,97%ga va regeneratsiyalash bo‘yicha esa 3,54 %ga yuqori bo‘lishiga erishildi. Tozalash texnologiyasida ajralgan chiqindilar tarkibidagi paxta bo‘lakchalarini tavsiya variantdagi regeneratorda qayta ishlanishi natijasida mahsulot yo‘qolishini 3,54 %ga kamaytirishga erishildi.

Dissertatsiyaning **“Mujassamlashgan tozalash texnologiyasini ishlab chiqarishdagi tajriba natijalari va iqtisodiy samaradorlik hisobi”** deb nomlangan beshinchi bobida takomillashtirilgan mayda iflosliklardan tozalash uskunalari va regeneratorni ishlab chiqarishda o‘tkazilgan tajriba sinovi va iqtisodiy samaradorlik hisobi keltirilgan.



1- shaxta-to‘plagich; 2- qoziqchali ta‘minlovchi valik; 3- qoziqchali-plankali baraban; 4-to‘rli yuza; 5-ifloslik bunker; 6-tayanch.

20-rasm. Takomillashtirilgan ta‘minlagichning umumiy ko‘rinishi va u o‘rnatilgan 1XK (1/2) mayda iflosliklardan tozalovchi uskunasi sxemasi

Shaxta-to'plagichning shakli to'g'ri to'rtburchak bo'lib, uning kengligi 240 mm va diametri 50 mm bo'lgan trubaga shaxmatsimon joylashuvdagi qoziqchalar oraliq masofasi 50 mm, balandligi 45 mm, diametri 12 mm, qoziqchalar qatorlari orasi 60° burchakda bo'lgan valikning umumiy diametri 140 mm ga teng qoziqchali ta'minlovchi valiklar, qoziqchali ta'minlovchi valiklar va qoziqchali-plankali barabanlar oraliq masofasi 50 mm hamda paxtani tozalash zonasiga tushishidan oldin qoziqchali-plankali barabanlarga uzatilish yo'nalishi yuqoridan amalga oshiriluvchi tozalagichning ishlab chiqarish namunasi tayyorlandi (20-rasm).

Ishlab chiqarish namunasi TST AGRO klaster tarkibidagi Mustaqillik paxta tozalash korxonasi tozalash bo'limida ikki qator joylashgan UXK tozalash agregatining birinchi qatoriga o'rnatildi. Tajriba sinovlarini o'tkazishda ikkita qatorda qayta ishlanayotgan paxtaning sifat ko'rsatkichlari solishtirilib, samaradorliklari aniqlandi.

Ishlab chiqarish korxonasida o'tkazilgan tajriba natijalari 6-jadvalda keltirilgan.

6-jadval

Ishlab-chiqarish sharoitida o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari

Ko'rsatkichlar	Paxtaning seleksiyasi, nav va sinfi			
	Mavjud texnologik jarayon		Taklif etilayotgan texnologik jarayon	
	Nam-77 I- nav 2-sinf	Nam-77 III-nav 2-sinf	Nam-77 I-nav 2-sinf	Nam-77 III-nav 2-sinf
1. G'aramdagi paxtaning sifat ko'rsatkichlari				
– namlik darajasi, %	9,8	11,4	9,8	11,4
– ifloslik darajasi, %	8,3	10,6	8,3	10,6
3. UXK agregatidan so'ng paxtaning ko'rsatkichlari:				
– ifloslik darajasi, %	1,2	1,3	0,7	0,7
– chigitning shikastlanishi, %	1,5	1,7	1,5	1,6
4. UXK agregatining texnologik ko'rsatkichlari:				
– tozalash samaradorligi, %	85,19	87,38	91,36	93,14
– chigit shikastlanishining oshishi, %	1,4	1,5	1,4	1,5
5. Arrali jindan so'ng chigitning ko'rsatkichlari:				
– chigitning shikastlanishi oshishi, jami, %	2,7	3,0	2,6	3,0
6. Tola tozalagichdan so'ng tola ko'rsatkichlari:				
– nuqson va iflos aralashmalar miqdori, %	2,6	4,3	2,2	3,5
–nav	I	III	I	III
–sinf	o'rta	o'rta	yaxshi	yaxshi

6-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qilsak, I nav 2 sinf paxtani amaldagi texnologik jarayondan o'tkazilganda tozalash samaradorligi 85,19 %ni tashkil etib, toladagi nuqsonlar va iflos aralashmalar 2,6 %ni, ya'ni I nav o'rta sinfdagi tola ishlab chiqarildi. Tavsiya etilayotgan UXK agregatining tozalash samaradorligi 91,36 %ni

tashkil etib, ishlab chiqarilgan tola tarkibidagi nuqsonlar va iflos aralashmalar 2,2 %ni tashkil etdi va tola davlat standarti bo'yicha I nav yaxshi sinfga to'g'ri keldi. III nav 2 sinfga mansub paxta xomashyosini amaldagi texnologik jarayondan o'tkazilganda texnologik jarayonning umumiy tozalash samaradorligi 87,38 %ni, tola tarkibidagi nuqsonlar va iflos aralashmalar 4,3 %ni tashkil etib, ishlab chiqarilgan tolaning sifat ko'rsatkichi III nav o'rta sinfga to'g'ri kelgan bo'lsa, taklif etilayotgan UXK agregatining tozalash samaradorligi 93,14 %ni tashkil etib, tola tarkibidagi nuqsonlar va iflos aralashmalar 3,5 %ni tashkil etmoqda va tolaning sifat ko'rsatkichi III nav yaxshi sinfga to'g'ri keldi. O'tkazilgan tajriba-sinov natijalaridan ko'rinib turibdiki, taklif etilayotgan UXK agregatida ishlab chiqarilgan tolaning sifat ko'rsatkichlari ko'tarilishiga erishilmoqda.

Takomillashtirilgan paxta ta'minlagich va tozalash texnologiyasini ishlab chiqarishga joriy etilganda qayta ishlanayotgan paxtadan ishlab chiqarilgan tolaning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilanishi hisobiga 82 986 793,63 so'm iqtisodiy samaradorlikka erishildi.

Qoziqchalari takomillashtirilgan shnekli tozalash uskunasi ishlab chiqarish namunasi tayyorlanib, "Kosta line" Xolding MCHJga huzuridagi Rishton paxta tozalash korxonasi tozalash texnologiyasiga o'rnatildi (21-rasm).




21-rasm. Qoziqchalari takomillashtirilgan 6A-12M1 shnekli tozalash uskunasi umumiy ko'rinishi

Tajriba ishlarida Namangan-77 seleksiya navidagi dastlabki namlik darajasi 7,8 %, ifloslik darajasi 5,3 % bo'lgan paxta xomashyosidan foydalanildi.

Rishton paxta tozalash korxonasi tozalash texnologiyasiga o'rnatilgan 6A-12M1 tozalash uskunasi va qoziqchalari takomillashtirilgan 6A-12M1 shnekli tozalagichlarni taqqoslangan tajriba natijalari 22-rasmda keltirilgan.

Olib borilgan tajribalarning natijalariga ko'ra, amaldagi 6A-12M1 tozalash uskunasi iflosliklardan tozalash samaradorligi 49,05 %ni, qoziqchalari takomillashtirilgan 6A-12M1 uskunasi 57,35 % ni tashkil etib, mavjud konstruksiyadagi tozalagichga nisbatan 8,3 %ga yuqori bo'lishiga erishildi. Ushbu natijaga erishilishiga shnek qoziqchalari shaklini o'zgartirilishi hisobiga to'g'ri yuzadan

foydalanish koeffitsiyenti oshishi va shnekdagi qoziqchalarning sonini ko'payishi natijasida paxta bo'lakchalariga berilayotgan zarbalar soni oshishi va uning yo'nalishini o'zgarishi bilan izohlanadi.



22-rasm. Mavjud va qoziqchalari takomillashtirilgan 6A-12M1 uskunasida mayda va yirik iflos aralashmalarning o'zgarish gistogrammasi

Tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq etilganda qayta ishlanayotgan paxta xomashyosidan olinayotgan tolaning sifat ko'rsatkichlarini I nav o'rta sinfdan yaxshi sinfga, II va III navlarda yaxshi sinfdan oliy sinfga, IV nav o'rta sinfdan yaxshi sinfga va V nav oddiy sinfdan o'rta sinfga o'tishiga ko'tarilishi natijasida 273480,927 ming so'm iqtisodiy samaradorlikka erishildi.

Nazariy va amaliy tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan mexanik usulda ishlovchi takomillashtirilgan paxta regeneratoring ishlab chiqarish namunasi "PAXTAGIN KB" da tayyorlandi va Toshkent viloyatidagi TST AGRO klaster tarkibidagi "Mustaqillik paxta tozalash" korxonasining tozalash liniyasiga o'rnatildi (23-rasm).



23-rasm. Takomillashtirilgan paxta regeneratoring umumiy ko'rinishi

Tadqiqotlarda Sul-ton seleksiya navi 2-sinfdagi paxtaning dastlabki namlik darajalari 10,74; 12,35 % va ifloslik darajalari 8,76; 11,96 % bo'lgan xomashyolar ishlatildi.

Ishlab chiqarish sharoitida mavjud va tavsiya etilayotgan paxta regeneratrlarining taqqoslangan tajriba natijalari 7-jadvalda keltirilgan.

Tajriba natijalarini tahlil qilsak, Sul-ton seleksiya navining I sanoat navini qayta ishlanganda UXK tozalash agregatining tozalash samaradorligi 91,8 %ni, iflosliklar

tarkibiga qo‘shilib ketgan paxta 52 %, mavjud va tavsiya etilayotgan regeneratorning tozalash samaradorligi o‘z navbatida 76,2 % va 90,5 % ni, regeneratsiyalash samaradorliklari o‘z navbatida 92,4 % va 98,85 %ni tashkil etdi.

7-jadval

Paxta tozalash korxonasida mavjud va takomillashtirilgan regeneraturlarni taqqoslama tajriba natijalari

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Amaldagi RX		Takomillashtirilgan RX	
			I nav	III nav	I nav	III nav
1.	UXK agregatining tozalash samaradorligi	%	91,8	93	91,8	93
2.	Regeneratorning ish unumdorligi	kg/soat	781	976	783	979
3.	Regeneratorning tozalash samaradorligi	%	76,2	79,0	90,5	92,89
4.	Regeneratsiyalash samaradorligi	%	92,4	91,9	98,85	97,13
5.	Ishlab chiqarilgan tolaning ifloslik va nuqsonlar miqdori:	%				
	-regeneratorda tozalangan paxtani alohida ishlaganda		3,30 oddiy	6,41 oddiy	2,57 o‘rta	4,34 o‘rta
	-regeneratorda tozalangan paxtani umumiy oqimga qo‘shib ishlanganda		2,76 o‘rta	5,89 oddiy	2,48 yaxshi	4,94 o‘rta
	Umumiy oqimdagi paxta alohida ishlanganda		2,70 o‘rta	5,52 oddiy	2,70 o‘rta	5,52 oddiy

Mustaqillik paxta tozalash korxonasida takomillashtirilgan regeneratorda iflosliklarga qo‘shilib ketgan paxtani besh marta tozalash qaytaligini tolaning sifat ko‘rsatkichlariga qanday ta’sir etishini aniqlash maqsadida tadqiqotlar o‘tkazildi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mavjud variantda uzunlik bo‘yicha bir xillik indeksi 83,4, iflos aralashmalar maydoni 1,66, kalta tolalar indeksi 7,3, yigiruvga yaroqliligi 126,2 ni tashkil etgan bo‘lsa, tavsiya variantida uzunlik bo‘yicha bir xillik indeksi 84,0, iflos aralashmalar maydoni 1,38, kalta tolalar indeksi 7,9, yigiruvga yaroqliligi 131,0 ni tashkil etdi.

Chigitning shikastlanganlik darajasi aniqlanganda mavjud regeneratorda 6,9 %ni, tavsiya variantidagi regeneratorda 6,4 %ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarish jarayoniga tadbiq qilingan ishlanmani ekspluatatsiya qilish hisobiga tolaning sinfi I navda “o‘rta” sinfdagi 63,27 tonna tolni “yaxshi” sinfga hamda III navda “oddiy” sinfdagi 51,26 tonna tolni “o‘rta” sinfga ko‘tarilishi hisobiga iqtisodiy samaradorlik 184,58 mln so‘mni va mahsulot yo‘qolishini kamaytirish orqali erishilgan iqtisodiy samaradorlik 226,86 mln so‘mni tashkil etdi.

XULOSALAR

1. Paxtani tozalash uskunariga ta‘minlovchi qurilmasi, paxtani mayda iflosliklardan ajratuvchi shnekli tozalagich va texnologiyalari hamda regeneratsiyalash uskunarini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar tahliliga ko‘ra, paxta ta‘minlagichlarini, qoziqchali shnekli tozalagichlarini va regeneratorni takomillashtirish zaxiralari mavjudligi aniqlandi.

2. Shaxta to'plagichda paxta oqimining bosimini zichligi va massasiga bog'liqlik ifodasi qurilib, shaxta-to'plagichda paxta zichligini oshirmasdan tozalash jarayoniga uzatish imkoniyatini beruvchi takomillashtirilgan shaxta to'plagich devorining qiyalik burchagi 0° gradusda va uning eni 150 mm bo'lishi aniqlandi. Ushbu qiymatlarda shaxta-to'plagichdagi paxtaning zichligini tozalash uskunasiga uzatishda kamayishiga erishiladi. Paxtani tozalash texnologiyasiga bir maromda uzluksiz ta'minlash imkoniyatini beruvchi ta'minlovchi valiklarning burchak tezligi 20 ayl/daq va ta'minlovchi valiklarning o'zaro o'qlararo oraliq masofasi 240 mm bo'lishi aniqlandi. Paxtani yuqori tozalash koeffitsiyentiga erishish uchun paxtani tozalash zonasiga tushishidan oldin qoziqchali-plankali barabanlarning yuqori qismida alohida bo'lakchalarga ajratib, paxtani tozalashga tayyorlash texnologiyasi ishlab chiqildi. Takomillashtirilgan ta'minlagichning regressiya modeli qurilib, uskunaning tozalash samaradorligi yuqori bo'lishi uchun shaxta-to'plagichning eni 240 mm, ta'minlovchi valiklar bilan qoziqchali-plankali barabanning oraliq masofasi 50 mm va uskunaning ish unumdorligi 5-7 t/soat bo'lishi aniqlandi.

3. Qoziqchali shnekning paxta oqimiga ta'siridagi harakatini uning turli xil burchak tezliklarini va shnek qoziqchalarining og'ish burchaklarini vaqtga bog'liq grafiklari qurildi. Qoziqchali shnekning burchak tezligi 270 ayl/daq va qoziqchanning og'ish burchagi 30° bo'lganda, paxta bo'lakchalarini eng optimal harakatlanishi, shuningdek ushbu qiymatlarda tozalash jarayonida ajralgan iflosliklar hisobiga massaning kamayishini ifodalovchi tozalash koeffitsiyentini ham eng yuqori bo'lishi aniqlandi. Shnekli tozalagichda qoziqchalarining og'ish burchagi 60° dan 15° gacha pasayib borishida, tozalash samaradorligi barcha ish unumdorlikda yuqori bo'lishi aniqlandi. Ish unumdorlik 6 t/soat va og'ish burchagi 60° bo'lganda, tozalash samaradorligi 59,7 %ni, 15° da esa 68,4 %ni tashkil etib, samaradorlikni 8,7 %gacha yuqori bo'lishiga erishildi.

4. Mayda iflosliklardan tozalash texnologiyasining shnekli tozalagichida paxta bo'lakchalarini eshinishini va uskunaning tozalash samaradorligini shnek qoziqchalarning og'ish burchagiga bog'liqlik grafiklari qurilib, og'ish burchagi 15° da paxta bo'lakchalarini eshinishi qiyalik burchagi 45° ga nisbatan 3,7%ga yuqori bo'lishi kuzatildi. Paxtani eshinishi eng kichik qiymati qoziqchanning og'ish burchagi 45° da erishilganligini inobatga olib, uskunaning tozalash samaradorligi va paxtani eshinishi o'rtasidagi muvozanatni saqlagan holda qoziqchanning og'ish burchagini eng optimal qiymati sifatida 45° tavsiya etildi.

5. Cho'tkali barabandan otib berilgan ifloslik aralashgan paxta bo'lakchalarini yo'naltirgich ta'siri natijasidagi harakatlanishini yo'naltirgichning oraliq masofasi va qiyalik burchaklariga bog'liqlik ifodasi qurilib, ularning optimal qiymatlari qiyalik burchak uchun 75° va yo'naltirgichlar oraliq masofasi uchun 150 mm bo'lishi aniqlandi.

6. Kichik kvadratlar usul yordamida qurilgan regression modellar asosida yirik iflosliklardan tozalash texnologiyasida iflosliklarga qo'shib ajralgan paxta bo'lakchalarini regeneratsiyalashda mahsulot yo'qolishini kamaytiruvchi regeneratorni takomillashtirilgan yo'naltirgichlarining o'zaro oraliq masofasi 150 mm, yo'naltirgichining qiyalik burchagi 75° da va ularning soni 8ta bo'lganda eng yuqori tozalash samaradorligiga erishilishi aniqlandi.

7. Regeneratorning tozalash samaradorligi tavsiya etilgan yo'naltirgichning qiyalik burchagi 75° bo'lganda yuqori bo'lishi bilan birga chigitning mexanik shikastlanganligi yo'naltirgichning qiyalik burchagi 65° variantdagiga nisbatan 0,72 %ga yuqoriligini va tozalash samaradorliklari orasida farqlanish 0,12 % ekanligini e'tiborga olib, yo'naltirgichning ratsional qiyalik burchagi 65° tavsiya etildi.

8. Takomillashtirilgan paxta ta'minlagichi paxta tozalash korxonasida o'rnatilgan tozalash texnologiyasining tozalash samaradorligi I nav 2 sinfdagi paxtada 91,36 %ni, III nav 2-sinfdagi paxtada 93,14 %ni tashkil etib, amaldagi texnologiyaga nisbatan I nav 2 sinfdagi paxtada 6,17 %ga, III nav 2-sinfdagi paxtada 5,76 %ga yuqori bo'lishi aniqlandi. Amaldagi texnologiyada I va III nav paxtadan ishlab chiqarilgan tolaning sinfi "o'rta", takomillashtirilgan paxta ta'minlagichi o'rnatilgan tozalash texnologiyasida esa "yaxshi" sinfidagi tola ishlab chiqarilishiga erishildi.

9. Amaldagi 6A-12M1 tozalash uskunasing iflosliklardan tozalash samaradorligi 49,05 %ni, qoziqchalari takomillashtirilgan 6A-12M1 uskunasida 57,35 % ni tashkil etib, mavjud konstruksiyadagi tozalagichga nisbatan 8,3 %ga yuqori bo'lishiga erishildi. 6A-12M1 uskunasida 28,22 % paxta bo'lakchalari eshilgan bo'lsa, UXK tozalash agregatida yirik iflosliklardan tozalashda eshilgan paxtani 11,46 % gacha kamayishi aniqlandi. UXK tozalash agregatida 3 ta yirik iflosliklardan tozalash seksiyasi mavjud bo'lsa, eshilgan paxta bo'lakchalarini 2,5 martagacha kamaytirishga erishildi.

10. Ishlab chiqarish sharoitida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida mavjud variantdagi regeneratorga nisbatan tavsiya variantdagi regeneratorning tozalash samaradorligi I nav paxtada 14,3 %ga, III nav paxtada 13,89 %ga yuqori bo'lishiga hamda regeneratsiyalash samaradorligi I nav paxtada 6,45 %ga, III nav paxtada esa 5,23 %ga oshishiga erishildi. Mavjud paxta regeneratorda qayta ishlangan paxta chigitning mexanik shikastlanganligi takomillashtirilgan paxta regeneratoriga nisbatan 0,5 %ga yuqori ekanligi aniqlandi.

11. Takomillashtirilgan paxta ta'minlagich va tozalash texnologiyasini hamda paxta regeneratoriga ishlab chiqarishga joriy etilganda qayta ishlanayotgan paxtadan ishlab chiqarilgan tolaning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilanishi va mahsulot yo'qolishini kamayishi hisobiga ta'minlagich bo'yicha 82,98 mln so'm, 6A-12M1 uskunasini bo'yicha 273,48 mln so'm, paxta regeneratoriga bo'yicha 411,44 mln so'mni tashkil etdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.Т.21.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ
ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ
ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

ТУЙЧИЕВ ТИМУР ОРТИКОВИЧ

**НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ УСОВЕРШЕНСТВОВАННОЙ
ТЕХНОЛОГИИ ОЧИСТКИ И РЕГЕНЕРАЦИИ ХЛОПКА**

05.06.02 - Технология текстильных материалов и первичная обработка сырья

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА НАУК (DSc)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2026.1 DSc/T910.

Диссертация выполнена в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-сайте Ученого совета при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности (www.ttyesi.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный консультант:

Рузметов Рахматжон Ибодуллаевич
доктор технических наук (DSc), доцент

Официальные оппоненты:

Джуманиязов Кадам Джуманиязович
доктор технических наук, профессор

Мухаммадиев Давлат Мустафоевич
доктор технических наук, профессор

Саримсаков Олимжон Шарипжанович
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация:

Джиззахский политехнический институт

Защита диссертации состоится 16 июня 2026 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.T.21.01 при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности. (адрес: 100100, г. Ташкент, ул. Шохжахон-5, Административное здание Ташкентского института текстильной и легкой промышленности, 2-этаж, 222-аудитория, тел.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, факс: 253-36-17; e-mail: pochta@ttyesi.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (регистрационный номер 301). Адрес: 100100, Ташкент, Шохжахон-5, тел.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Автореферат диссертации разослан 2 июня 2026 года.
(реестр протокола рассылки №301 от 2-июня 2026 года).



Х.Х. Камилова
Председатель Научного Совета
по присуждению ученых степеней,
д.т.н., профессор

А.З. Маматов
Ученый секретарь Научного Совета
по присуждению ученых степеней,
д.т.н., профессор

Ш.Ш. Хакимов
Председатель Научного семинара
при Научном Совете по присуждению
ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Мировая текстильная промышленность показывает, что хлопковое волокно составляет 55–60 % от общего объёма текстильных волокон, что ещё больше повышает значение хлопка в данной отрасли и свидетельствует о том, что он является одним из основных видов сырья. Согласно мировой статистике и данным Международного консультативного комитета по хлопку (ICAC), в хлопковом сезоне 2025–2026 годов в число четырёх крупнейших стран-экспортёров хлопкового волокна входят США, Индия, Австралия и Бразилия, тогда как в списке стран-импортёров ведущие позиции занимают Вьетнам, Бангладеш, Пакистан, Китай и Турция. Системное развитие хлопково-текстильных кластеров, широкое внедрение передовой техники и технологий на промышленных предприятиях, повышение уровня эффективного и рационального использования существующих производственных мощностей, а также расширение производства конкурентоспособной на мировом рынке хлопка готовой и полуготовой продукции с высокой добавленной стоимостью являются основными факторами, обеспечивающими устойчивое развитие хлопковой промышленности. В этой связи, в частности, в хлопково-текстильных кластерах, функционирующих на мировом уровне, особое внимание уделяется разработке современных питающих устройств, обеспечивающих непрерывную и качественную подачу сырья, модернизации оборудования для эффективного отделения мелких и крупных примесей из хлопка, а также совершенствованию технологий регенерации, направленных на снижение потерь в процессе переработки.

В международной практике широко проводятся систематические научно-исследовательские работы, направленные на дальнейшее совершенствование техники и технологий первичной переработки хлопка. В данной области, в частности, большое значение имеют разработка эффективных технологий очистки хлопка-сырца от сорных примесей, обеспечение равномерной и непрерывной подачи хлопка, создание ресурсосберегающих и высокоэффективных устройств подачи, подготовка хлопка к процессу очистки, снижение скручивания хлопковых волокон при очистке от мелких примесей, разработка технологии регенерации хлопковых частиц, содержащихся в составе отходов, а также оптимизация режимов работы и технологических показателей.

В нашей республике реализуются комплексные меры по развитию хлопково-текстильной отрасли, модернизации и техническому перевооружению хлопкоочистительных предприятий, повышению эффективности производства и переработки хлопкового сырья, а также увеличению конкурентоспособности выпускаемой продукции. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы, в частности, определены важные задачи, согласно которым «...предусматривается продолжение промышленной политики, направленной на обеспечение устойчивости национальной экономики и увеличение доли промышленности в валовом внутреннем продукте, с целью увеличения объёма промышленного производства в 1,4 раза, при этом объём производства

продукции текстильной промышленности планируется увеличить в 2 раза...»¹. При выполнении данной задачи, в частности, одним из важных вопросов является обеспечение очистительных машин хлопком в непрерывном и разрыхлённом состоянии, подготовка хлопка к процессу очистки, снижение степени скручивания хлопковых волокон, а также создание эффективной технологии регенерации хлопковых частиц из состава примесей.

Данное диссертационное исследование в определённой степени служит реализации задач, определённых в нормативно-правовых актах, в том числе в Указе Президента Республики Узбекистан № ПФ–60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Указе № ПФ–14 от 16 ноября 2021 года «О мерах по регулированию деятельности хлопково-текстильных кластеров»², Указе № ПФ–2 от 10 января 2023 года «О мерах по поддержке деятельности хлопково-текстильных кластеров, коренному реформированию текстильной и швейно-трикотажной промышленности, а также дальнейшему увеличению экспортного потенциала отрасли»³, а также в Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 733 от 4 декабря 2021 года «Об утверждении Положения о порядке организации деятельности хлопково-текстильных кластеров»⁴ и других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики II. «Энергетика, энерго- и ресурсосбережение».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации.

Научные исследования, направленные на разработку техники и технологии очистки хлопкового сырья от сорных примесей, широко проводятся в ведущих научно-исследовательских центрах и высших учебных заведениях мира, в том числе в Texas Tech University, Samuel Jackson Incorporated, U.S. Department of Agriculture, Lummus, USDA Ginning Cotton Research Unit, USDA Agricultural Research Service (США), Cotton Research Institute of Nanjing Agricultural University Lebed (Китай), Central Institute for Research on Cotton Technology, Bajaj Steel Industries Ltd (Индия), Balkan Cotton Ginning Machinery Ltd. (Турция), Brazilian Agricultural Research Corporation (Бразилия).

На основе научных исследований, проведённых в мире по совершенствованию техники и технологий, направленных на сохранение природных качественных показателей хлопка и повышение эффективности производства, получен ряд результатов, в частности, следующие: создана

¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ–60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы».

² Указ Президента Республики Узбекистан от 16 ноября 2021 года № ПФ–16 «О мерах по регулированию деятельности хлопково-текстильных кластеров».

³ Указ Президента Республики Узбекистан от 10 января 2023 года № ПФ–2 «О мерах по поддержке деятельности хлопково-текстильных кластеров, коренному реформированию текстильной и швейно-трикотажной промышленности, а также дальнейшему наращиванию экспортного потенциала отрасли».

⁴ Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 4 декабря 2021 года № 733 «Об утверждении Положения о порядке организации деятельности хлопково-текстильных кластеров».

система автоматического регулирования необходимых этапов очистки хлопка с учётом его первоначальной засорённости (USDA Ginning Cotton Research Unit, США); для очистки хлопка-сырца от мелких и крупных примесей, а также для интенсификации процесса отделения сорных примесей из состава хлопка, в технологии первичной переработки установлен единый питающий бункер, а также разработаны технологии, при которых в очистителях хлопок сначала разрыхляется в верхней части колковых барабанов, после чего подаётся в зону очистки (Texas Tech University, США; Bajaj Steel Industries Limited, Индия); разработана «Согласованная технология первичной переработки хлопка» для очистки хлопка-сырца от мелких и крупных примесей (Ташкентский институт текстильной и лёгкой промышленности, Научно-исследовательский институт волокнистых культур, Узбекистан).

В мире проводятся исследования по созданию оборудования и технологий очистки и регенерации хлопка по ряду приоритетных направлений, в частности по следующим: устранение временных перерывов в подаче хлопка в питающих устройствах при его очистке; снижение степени скручивания хлопковых волокон при очистке хлопка от мелких примесей; интенсификация процесса отделения примесей, а также разработка эффективной технологии очистки, обеспечивающей повышение эффективности регенерации хлопковых частиц, попавших в состав отходов.

Уровень изученности проблемы. Ряд зарубежных учёных, в том числе W.S. Anthony, Wu Yanqin, X. Zhang, J.D. Wanjura, M.N. Gillum, C.B. Armijo и другие, проводили научные исследования по совершенствованию хлопкоочистительных машин, питающих устройств и регенераторов.

Вопросами совершенствования техники и технологии очистки хлопка от сорных примесей, показателей и режимов работы основных рабочих органов, а также процессов подачи хлопка занимались многие учёные, в том числе А.Е. Лугачев, Б.Г. Кадиров, И.К. Хафизов, Г.А. Курбанова, А. Парпиев, А. Джураев, Ю.С. Сосновский, А.А. Сафаев, П.Н. Бородин, И.Д. Мадумаров, Ш.Ш. Хакимов и другие, которые внесли достойный вклад в развитие данной отрасли.

Однако анализ машин очистки и регенерации хлопка от сорных примесей, а также питающих устройств, используемых на зарубежных и отечественных хлопкоочистительных предприятиях, показывает, что вопросы повышения эффективности их рабочих органов до настоящего времени не нашли своего эффективного решения.

Связь темы диссертации с планами научных исследований вуза, в котором выполняется диссертация. Диссертационное исследование выполнено в рамках научно-исследовательских работ Ташкентского института текстильной и лёгкой промышленности по темам: ИТД-3-136 «Создание ресурсосберегающей технологии и устройства очистки управляемых волокнистых материалов» (2012–2016 гг.) и № ОТ-F4-13 «Разработка теоретических основ повышения эффективности технологии очистки хлопка-сырца» (2017–2020 гг.).

Цель исследования заключается в обеспечении очистителей хлопком в равномерно разрыхлённом состоянии, а также в повышении эффективности очистителей и регенератора при одновременном снижении скручивания хлопковых частиц и уменьшении потерь продукции.

Задачи исследования:

- определение параметров усовершенствованного шахтного накопителя, обеспечивающего подачу хлопка в процесс очистки без увеличения его плотности;

- определение параметров питающих валиков, обеспечивающих равномерную и непрерывную подачу хлопка в технологию очистки, а также разработка технологии подготовки хлопка к очистке;

- определение рациональных значений параметров шнековых колков, снижающих степень закручивания хлопковых летучек и повышающих эффективность очистки в шнековом очистителе;

- снижение потерь продукта при регенерации хлопковых летучек, отделившихся вместе с сорными примесями в процессе очистки;

